XALQ DEPUTATLARI BULUNG‘UR TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 25-dekabr VII-22-131-7-93-K/25 Bulung‘ur tumani

Bulung‘ur tumanining 2025-yil 4-chorak mahalliy budjet daromadlari va xarajatlarini balansliligini buzmagan holda ko‘paytirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi “O‘zbekiston mahallalari uyushmalari faoliyatini yo‘lga qo‘yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-402-sonli qarori ijrosini ta’minlash hamda O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksining 127-moddasi va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Bulung‘ur tumani Kengashining yettinchi chaqiriq yigirma ikkinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi “O‘zbekiston mahallalari uyushmalari faoliyatini yo‘lga qo‘yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-402-sonli qaroriga asosan tumandagi jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer solig‘i bo‘yicha undirilgan mablag‘larning (noturar joylar bo‘yicha undiriladigan mol-mulk va yer solig‘i bundan mustasno) 10 foizini mahalla jamg‘armasiga o‘tkazishdan yuzaga kelgan farqni qoplash uchun 1 307 302,0 (bir milliard uch yuz yetti million uch yuz ikki ming) so‘m mablag‘ zarurligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston mahallalar uyushmasi Bulung‘ur tuman bo‘limi tasarrufidagi mahallalarning “Mahalla jamg‘armasi”ga jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer solig‘i bo‘yicha undirilgan mablag‘larning (noturar joylar bo‘yicha undiriladigan mol-mulk va yer solig‘i bundan mustasno) 10 foizini o‘tkazishdan yuzaga kelgan farqni qoplash uchun Samarqand viloyati

Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi bilan kelishilgan holda, xalq deputatlari Bulung‘ur tumani Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-5-027-7-93-K/24-son qarori 1-ilovasidagi 8-bandi hamda 2-ilovasidagi 9-bandi tuman mahalliy budjeti hisobidan Bulung‘ur tuman mahalliy budjetining 2025-yil 4-chorak daromadlari va xarajatlarini 1 307 302,0 (bir milliard uch yuz yetti million uch yuz ikki ming) so‘m 1-ilovaga muvofiq oshirilsin.

3. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari (T.Uljayev) Bulung‘ur tuman mahalliy budjetining 2025-yil 4-chorak daromadlari va xarajatlari rejalariga tegishli o‘zgartirish kiritsin.

4. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish, xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi O.Axmedov va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Sh.Ibragimov zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi **ASTONOV SAMANDAR MUSTAFOKULOVICH**

Xalq deputatlari Bulung‘ur tumani
Kengashining
2025-yil 25-dekabrdagi
VII-22-131-7-93-K/25 -son qaroriga
1-ilova

a) **Xalq deputatlari Bulung‘ur tumani Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-5-027-7-93-K/24-son qarori 1-ilovasidagi 8-bandi Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i pozitsiyasi quyidagi tahrirda bayon etilsin:**

(ming so‘mda)

Soliq turi	**Tasdiqlangan parametr**	**Parametrga kiritiladigan o‘zgarish so‘mmasi**	**Jami**
Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	22 326 000	1 307 302	23 633 302

b) **Xalq deputatlari Bulung‘ur tumani Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-5-027-7-93-K/24-son qarori 2-ilovasidagi 9-bandi “Mahalla budjeti” jamg‘armasi mablag‘lari pozitsiyasi quyidagi tahrirda bayon etilsin:**

(ming so‘mda)

Xarajat turi	**Tasdiqlangan parametr**	**Parametrga kiritiladigan o‘zgarish so‘mmasi**	**Jami**
“Mahalla budjeti” jamg‘armasi mablag‘lari	1 900 000	1 307 302	3 207 302